



FARG‘ONA VILOYATI FARG‘ONA TUMANI HOKIMINING FARMOYISHI

2025-yil 26-dekabr

187-11-163-F/25

Farg‘ona tumani hokimligi

Farg‘ona tumani Marg‘ilon MFY hududida joylashgan Davlat xizmatlari markazida “Yangi yil bayram” tadbiri o‘tkaziladigan hududda xavfsizlikni ta’minlash, jamoatchilik tartibini saqlash hamda avtotransportlar qatnovini cheklash haqida

“Yangi yil bayram” tadbiri Farg‘ona tumani Marg‘ilon MFY hududida joylashgan “Davlat xizmatlari markazi”da o‘tkazilishini inobatga olib, ushbu hududda xavfsizlikni ta’minlash, jamoatchilik tartibini saqlash hamda avtotransportlar qatnovini cheklash maqsadida O‘zbekiston Respublikasi “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi Qonunining 6-moddasini qo‘llab:

1. Farg‘ona viloyati hokimligining 2025-yil 15-dekabrda “Farg‘ona viloyatida “Prezident archasi” tadbirini o‘tkazishga tayyorgarlik ko‘rish va uni yuqori saviyada tashkil etish to‘g‘risida”gi 1040-xdfu-sonli yig‘ilish bayoni rahbarlik va ijro uchun qabul qilinsin.

2. Farg‘ona tumani Ichki ishlar bo‘limi JXX YHXGning 2025-yil 16-dekabrda № 844-sonli xati ma’lumot va asos uchun qabul qilinsin.

3. “Yangi yil bayram” tadbiri Farg‘ona tumani Marg‘ilon MFY hududida joylashgan “Davlat xizmatlari markazi”da 2025-yil 25-dekabrda 2026-yil 5-yanvargacha o‘tkazilishi belgilansin.

4. “Yangi yil bayram” tadbiri o‘tkaziladigan 4R-144-sonli “Farg‘ona Xamzaobod” avtomobil yo‘lining 20-21 km larida xavfsizlikni ta’minlash, jamoatchilik tartibini saqlash hamda avtotransportlar qatnovini cheklash maqsadida;

- 2025-yil 25-dekabrda 2026-yil 5-yanvargacha bayram tadbirlari o‘tkaziladigan kunlari soat 17⁰⁰ dan 22⁰⁰ gacha;

- 2025-yil 27-dekabr asosiy tuman tadbiri o‘tkaziladigan kuni soat 09⁰⁰ dan 14⁰⁰ gacha;

- 2025-yil 31-dekabr kuni soat 08⁰⁰ dan 2026-yil 1-yanvar kuni soat 08⁰⁰ gacha avtomobillar qatnovi to'liq cheklansin.

5. Farg'ona tumani Ichki ishlar bo'limi, Farg'ona tuman YXPFTDK, tuman IIB YXXG, tuman Obodonlashtirish boshqarmalariga:

- bayram tadbirlari o'tkaziladigan kunlari 4R-144-sonli "Farg'ona Xamzaobod" avtomobil yo'lining 20-21 km larida avtomobillar qatnovini to'liq cheklash;

- cheklovlar o'rnatiladigan 2 ta joyga nazorat postlari tashkil etish hamda blok postlar o'rnatish;

- o'rnatiladigan blok postlarini zaruriy materiallar va cheklov yo'l belgilari bilan ta'minlash;

- ushbu cheklov qo'yilayotgan avtomobil yo'li Davlat ahamiyatiga ega ekanligini inobat olib, "Farg'ona Xamzaobod" avtomobil yo'lga olib chiquvchi boshqa yo'nalishni tanlash;

- avtotransportlarni vaqtincha xarakatlanishini Sanoat MFY Sanoat ko'chasidan xavfsizlikni ta'minlagan holatda yo'lga qo'yish;

- amalga oshirilgan ishlar to'g'risida tuman hokimligiga axborot berish vazifalari yuklatilsin.

6. Ushbu farmoyishni bajarilishini nazorat qilib borishni o'z zimnamda qoldiraman.

Farg'ona tuman hokimi



Inomov X.T